



«TASDIQLAYMAN»  
Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi boshlig‘ining  
birinchi o‘rinbosari  
Sh.Norkulov  
avgust 2022-yil

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida  
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida  
bo‘lib o‘tgan yig‘ilish**

**BAYONI №7**

2022- yil 26-avgust

Toshkent sh.

**Yig‘ilish raisi:** Sh.Norkulov – Boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

**Qatnashganlar:** S.Annazarov – Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari  
Boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika bo‘limlari xodimlari

**KUN TARTIBI:**

“Toshkent shahar statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi” yuzasidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejalarida belgilangan vazifalar ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi «Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6257-son Farmonining mazmun mohiyatini tushuntirish to‘g‘risida.

( Sh.Norkulov, S.Annazarov, Sh.Shaagzamova, B.Shakarov, Sh.Norkulov)

Yig‘ilishda, “Toshkent shahar statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi” ijrosini ta’minalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi «Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6257-son Farmoni ijrosi yuzasidan boshqarma va tuman statistika bo‘limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o‘tildi.

Shuningdek, Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo‘limlarida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minalash yuzasidan boshqarma hamda tuman

statistika bo‘limlari majburiyatlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlariga tegishli topshiriqlar berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida mazkur farmon qabul qilinganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo‘qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanishi ta‘kidlandi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbazarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbazarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6257-son Farmonining jrosini ta‘minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo‘limlari majburiyatlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Shuningdek, boshqarmaning rasmiy veb-sayti [www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz).da ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari miqdori yildan-yilga ortib borayotGANI hamda boshqarmaning rasmiy veb-saytiga Toshkent shahri bo‘yicha oylik, choraklik va yillik tahliliy statistik ochiq ma’lumotlar joylashtirib borilishi ta‘kidlab o‘tildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridagi chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat’iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni yangi tashkil topgan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va “Ochiq eshiklar

kuni”da tadbirkorlik sub’ektlariga davlat statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozimligi to‘g‘risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o‘tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo‘limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to‘g‘risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig‘ilish

### **Q A R O R   Q I L A D I:**

1. Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo‘limlarida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejası hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6257-son Farmonining ijrosi o‘z vaqtida ta’mnlansin.

2. Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi idoraviy komissiyasi a’zolari, tarmoq va tuman statistika bo‘limlari boshliqlariga:

-Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo‘limlarida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejası bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so‘zsiz bajarilishi ta’mnlansin amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar kiritilsin;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to‘liq ta’minalash yuzasidan barcha zarur choralarни ko‘rgan holda, mansab vakolatlarini suiste’mol qilib, korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat’iy jazo choralarini ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin;

- boshqarma va tuman statistika bo‘limlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “Odob-axloq qoidalari”ga amal qilgan holda o‘z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari yuzasidan mas’uliyatlarini yanada oshirsinlar.

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda axborotdan foydalanuvchilarning so‘rovlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida ko‘rib chiqilishini, murojaatlarning tahlil etilishi va bu borada faoliyat natijalarini muhokama etib borilishini ta’minlab, ushbu masalalarga mas’ul rahbar va xodimlar faoliyati yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

- boshqarma va tuman statistika bo‘limlarida tadbirkorlik sub’ektlari bilan targ‘ibot-tashviquot ishlarini keng qamrovda va tizimli asosda tashkil etilishini ta’minlab, bunda asosiy e’tiborni tadbirkorlik sub’ektlari uchun yaratilgan qulayliklar, ularning huquqlari va majburiyatlari, hisobot taqdim etish tartiblari va

muddatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borilishiga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishiga va ularning profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratsinlar hamda bu borada sustkashlikka yo‘l qo‘ygan rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat’iy intizomiy jazo choralarini ko‘rilishi yuzasidan ogohlantirilsin;

- davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan ma’muriy ishlarni yuritishda amaldagi qonun hujjatlariga to‘liq rioya etilishini ta’minlab, bu borada asosiy e’tiborni Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 215-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik sub’ektlarining mansabdor shaxslariga nisbatan ma’muriy amaliyotni qo’llashni O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-418-son qonuni talablari asosida yuritilishiga qaratsinlar;

- boshqarmaning rasmiy veb-saytining uzluksiz faoliyatini ta’minalash va takomillashtirib borish hamda ulardagi ma’lumotlarni muntazam yangilab va to‘ldirib borilishini ta’minalash, shuningdek Davlat statistika organlari faoliyatini ochiqligini yoritib beruvchi ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, shu bilan birga Davlat statistika qo‘mitasi va boshqarma tomonidan berilgan topshiriqlarning tizim organlarida ijro etilishi holatini muntazam ravishda o‘rganilsin;

3. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Yig‘ilish kotibi

Sh.Shaagzamova